
"TURON" MAKTAB TEATRI TANLOVNING TOSHLOQ TUMAN BOSQICHI BO'LIB O'TDI

Bugun tumandagi 2-umumta'lim maktabida Maktabgacha va maktab ta'limi, madaniyat vazirligi hamkorligida tashkil etilgan "Turon" maktab teatri tanlovining tuman bosqichi bo'lib o'tdi.

O'quvchilarda notiqlik san'ati va sahna madaniyatini shakllantirish, ta'lim muassasalaridagi o'quvchilar teatr studiyalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida o'tkazilayotgan tanlovning mazkur bosqichida 7-10-sinf o'quvchilaridan iborat tumandagi maktablarning 7 ta jamoalar ishtirok etdilar.

Tanlov Nizomiga asosan 3 ta shart bo'yicha baholandi. 1-shart "Bizning maktab" tanishtiruv, 2-shart "Madaniyat va san'at bilimdoni" hamda 3-shart "Teatr - ibratxona" sahna spektakli bo'lib, shartlar bo'yicha yoshlar o'z iste'dodlarini namoyon etdilar.

2024-04-02 17:25:11